



O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODI BO'LMISH - MAQOLLARNING O'RGANILISHI

Yuldashev Otabek Sabirovich

Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8426041>

ARTICLE INFO

Received: 05th Oktober 2023

Accepted: 09th Oktober 2023

Online: 10th Oktober 2023

KEY WORDS

Paremiologiya, maqol-matal, xalq og'zaki ijodi, o'zbek xalq maqollari, folkloristika.

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'zbek xalq maqollarining qachon paydo bo'lgani hamda shu davlarda qanday nomlanganligiga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, olimlarning ilmiy nazariy o'rganishlari, ilmiy tadqiqotlari yuzasidan ilmiy ishlar ko'rib chiqilib, va folkloristikaga kiruvchi maqol va matallarning farqli jihatlari hamda maqollarning xalq og'zaki ijodidagi ahamiyati xususida so'z yuritiladi.

Bilamizki, o'zbek xalqi qadim qadimdan shakllanib kelmoqda, bu shakllanish xalqni progressiv tomonga o'stirish bilan birga milatningning tili hamda yozuvi va ma'naviyatini ham rivojlanib borishiga sabab bo'ldi.

Har bir xalqning, elatning bosh ma'naviy ozuqisi bo'limish - xalq og'zaki ijodi ya'niki, Folkloristik tushunchalari ham mavjud. Mana shu qadimdan sayqallanib, rivojlanib kelayotgan o'zbek xalqida ham ushbu tushunchalar yod emas.

Aslini olganda, millatni o'zligini ko'rsatuvchi milliy qadriyatlarni, xalqning madaniyatini ifodalovchi omillardan biri - xalq og'zaki ijodidir.

Xalq ijodiyodi juda ham keng qamrovli ma'no anglatadi. Negaki, uning tarkibiga kiruvchi atamalar va izoh talab qiluvchi so'zlar hamda ko'plab janrlarni tashkil etadi.

Misol tariqasida aytishimiz mumkinki:

1. Maqol
2. Matal
3. Topishmoq
4. Laparlar
5. Aytishuv
6. Turli marosimlarga bog'liq qo'shiqlar.
7. Folkloristik hikoya va ertaklar shular jumlasidandir.

Siz bilan hozirgi yozmoqchi bo'lgan maqolamizda maqollar va ularning tadqiqi hamda o'rganilishi to'g'risida gaplashamiz.

"Maqol - xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda, obrazli va obrasiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati,



etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan" [1]

Maqollar bilamiz, so'zlashayotgan insonning gaplarini va so'zlarini emotsional ekspersivlik tomonlama boyitishga yordam beradi va suhbatni, nutqni yanada uslubiy bo'yoqdorligi oshiradi.

O'zbek maqollari mavzu jihatidan xilma-xil va rang-barangligi bilan boshqa xalq maqollaridan ajralib turadi. Ayni vaqtda ular yaratilishi jihatdan juda qadimiy zamonlarda yashagan ajdodlarimiz ijodining mahsulidir. Xalq maqollari mukammal badiiy ijod namunasi sifatida tilshunoslar, adabiyotshunoslar, folklorshunoslar tomonidan kop marotaba o'rganilgan.

Shuni ham aytib o'tish joizki, maqolalar kimdir tomonidan atayin o'ylab topilmaydi, bu kimgadir bog'liq emas. Aksincha ular vaziyat taqazoosiga ko'ra aytiladi va shu vaqtda tug'iladi. Ya'niki hayotimizdagi bo'layotga voqea- hodisalar, turmush sharoitidan kelib chiqib paydo bo'ladi va shunga moslanib aytiladi.

Ko'plab adabiyotshunos olimlarimiz tomonidan qilingan tadqiqotlarga muvofiq, har bir janrda janriy xususiyatlar bo'lganidek, maqollardan ushbu tushunchalar mavjud.

Maqollar xalq donishmandchligining nodir namunasi hisoblanadi, unda ishtirok etayotgan peredmetlar ham o'ziga xos uslubda, o'xshatishlar asosida namoyon bo'ladi.

Maqollar haqida izlanishlar olib borar ekanmiz, bunda "paremiologiya" sohasiga ham oid qarashlar bor ekanliga guvoh bo'lamiz.

"Paremiologiya (yunoncha: paroimia — hikmatli so'z, zarbulmasal va ... logiya) —

1) ma'lum bir tildagi avloddan avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni — paremalarni o'rganadigan fan sohasi;

2) muayyan tilda mavjud bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar — paremalar tizi-mi. Paremalar avloddan avlodga faqat og'zaki holdagina o'tib kelganligi, xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lganligi uchun adabiyotshunoslikning o'rganish ob'yekti hisoblanadi, chunki ularning aksariyati ko'pincha she'riy shaklga o'xshaydi va ularda o'xshatish, antiteza, anafora, alliteratsiya, kinoya, piching kabi bir qancha tasviriy vositalar qo'llanadi" [2]

Demak, maqollarni biz paremalar qatorida sanar ekanmiz, undagi predmetlik xususiyatlari ham ko'zga tashlanadi.

Masalan aytishimiz mumkini, "O'zbek xalq maollari" to'plamda predmetlik xususiyatiga ko'ra, qanday mavzuga oidligiga ko'ra bir qancha guruhlariga ajratilgan.

- Vatan tuyg'si singdirilgan maqollar.
- Mehnatsevarlik yaxshi tomonlari haqidagi maqollar
- Jamoat odobi to'g'risidagi maqollar
- Do'stlikning yaxshiligi va kelishmovchilikning yomon oqibati to'g'risidagi maqollar
- Fan va san'at o'rganish yaxshiliklari
- Doni bo'lishning yaxshi xususiyatlari va johillikning salbiy oqibati haqidagi maqollar
- Mardlik-jasurlik doimo xalq e'zozida bolishligi to'g'risidagi maqollar
- Yoxud jasorat hammada ham bo'lavermasligi hamda qo'rqqoqning uyatlikka olib keluvchi oqibatlar haqidagi maqollar



- Doimo extiyotkorlikka chariuvchi, e'tiborsizlikdan qochish haqidagi maqollar
- Oila va yaqinlarga doimo hurmatda bo'lishlik singdirilgan maqollar
- Ishq, sadoqat, sevgi tushunchalaring o'zaro yaqin ma'noviyliги xususida
- O'zingdan katta bo'lgan insonlarga nisbatan doimo hurmat ko'rsatilishi kerakligi singdirilgan maqollar
- Kamtarlik yaxshi xulqli va fe'l-atvori chiroyli insonlarda bolishligi to'g'risidagi maqollar
- Insonda qadr- qimmatning bo'lishligi haqidagi maqollar
- Mehmonga borgandagi odoblar va qo'shimcha ravishda mezbonning ham o'ziga yarasha odoblari xususida.
- Yaxshi so'z har doim ezgulik keltirishi to'g'risidagi maqollar
- Rostgo'ylik va saxiylik yaxshi xulqli kishilarning yutuqli tomoni ekanligi haqida
- Extiyotkorklik samarili natijalari-yu, uquvsizlikning besamar vaqt o'tkazish ekanli haqida
- Tejamkorlik har qayerda yaxshilikka sabab bo'lishi, isrofni esa insonni ham qadsizlanishga olib kelishi haqidagi maqollar
- Sabr, vafo, qanoat tushunchalari o'zaro yaqin ma'nolarni anglatishi va yaxshiliklari to'g'risidagi maqollar
- Insonning qalbi soflik va poklik ila bezalishi lozimligi to'g'risida.
- Ishon va umid har bir insonni kuchli qilguguvchi qutrat ekanligi xususidagi maqollar
- Maqtanchoqlik va kibr insonga yaxshilik olib kelmasligiga oid maqollar
- Ochko'zlikning oxiri yomonlik bilan, shaytoniy nasf ekanligiga ishora maqolalar
- Hayvonlarni ramzilik darjasiga olib, ko'chma ma'noda qo'llangan maqolalar
- Kattalar nasibati, ko'pni bilishlik haqidagi maqollar
- Majoziylik va ramziy timsollar (narsa-buyum va hk) haqidagi maqollar
- Pand-nasihati va odoq-axloq me'yorida bolishligi to'g'risidagi maqollar
- Tarixiy vaqea-hodisalar keltirilgan o'rnak sifatida aytiladigan maqollar
- Haqiqatparvarlik doimo yaxshilanishi yolg'on esa qoralanishi kabi mavzular yoritilgan maqollar.

Ushbu xususiyatlarni ko'rib aytishimiz mumkinki, maqollar o'zining ma'noviy jihatdan turli mavzularni yoritar ekan.

Biz yuqorida aytib o'tdikki, xalqning tarixiy shakllanishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Maqollarning ham yaratish tarixi shunday va bu yillar davomida sayqallanib kelmoqda. Tarixidan ayon bo'lishicha maqollar o'tmishda "sav" atamasi bilan yuritilgan. Mumtoz davr adabiyotida, A.Navoiy ijodida maqol atamasiga "matal" terminidan foydalanganligini aytishimiz mumkin. Misol tariqasida: Navoiy o'z asarlarining birida "Masaldikim -uyqu o'limdir" deya aytib o'tadi.

Bu atama XX asrgacha "Matal" termini bilan yuritilgan.

O'tgan asrning birinchi choragidan esa Maqol aytamasi qo'llanila boshlagan.

Maqollar boshida xalq tilidagina qo'llangan bo'lsa, keyinchalik xalq u yozivchi va shoirlarning ijodida ham qo'llanila boshladi.

Bunday ijodkorlarimizga: Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg'ozi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodiralarni aytishimiz mumkin.



Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun undan foydalanish hamma zamon soz san'atkorlarining e'tiborida bolgan.

Keyinchalik, maqollarni o'rganish tadqiqotlarimizdan darak berishicha, Muqumiy, Fitrat, Cho'lpon, Oybek, Abdulla Qodiry va boshqa bir qancha ijodkorlarimiz ijodiyotida ham keng foydanganiga guvohmiz.

Jumladan: "Alisher Navoiy lirikasida «Chiqmag on jonga umid», «It uyub qoldiyu, kochdi karvon», «Men firoqdin desam, ul der Iroqdin»; Bobur ijodida: «Bolib turur ikki kozim yolida tort», «Men edim saningdek, sen bolgoysen maningdek»; Abdulla Qahhor ijodida «Otning olimi, itning bayrami», «Quruq qoshiq ogiz yirtar»; «Alpomish» dostonida «Sulton suyagini xorlamas», «Elakka borgan xotinning ellik ogiz gapi bor» kabi maqollar koplal uchraydi" [3]

Xulosa qilib aytganda, maqollar har bir davrda o'z o'rniga ega va ko'plab ijodkorlar tomonidan tahlil qilinib, keng foydalanilgan ekan, bular emotsional ekpressivlik jihatdan xalq og'zaki ijodi namunasi hisoblanadi.

Shuningdek ushbu xalq og'zaki ijodi o'rganish xalqimizni adabiyotga bo'lgan qiziqishi hamda e'tiborini yaqqol dalili hisoblanadi. Bundan tashqari folkloristik tushunchalar nutq uslubini go'zallashtirish bilan birga butun bir xalqning ma'naviyatini ham ochib berishga xizmat qiladi.

References:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklapediyasi. Toshkent. 2000
2. Berdiyurov H., Rasulov R., Uzbek tilining paremiologik lug'ati, T., 1984.
3. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: Sharq, 2010.
4. Якубов О. Эр бошига иш тушса. Сайланма. Т. 1987.
5. O'zbek xalq maqollari.- Toshkent: 1987.
6. Shomaqsudov Sh. Shoraxmedov Sh. Ma'nolar maxzani. 2001